



Received: September 11, 2021
Accepted: December 19, 2021
Available online: December 25, 2021

Zuxra Xazratova

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
mustaqil izlanuvchisi
Toshkent, O'zbekiston

JURNALIST TALABALARGA XORIJIY TILNI O'RGATISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING O'RNI

ANNOTATSIYA

Maqola jurnalistika sohasida tahsil olayotgan talabalarga xorijiy tilni o'qitish usullari va unda kompetensiyaviy yondashuvning o'rni hamda ahamiyatini tadqiq etishga bag'ishlangan. Muallif dastlab jurnalistika sohasi va uning boshlang'ich ta'limi qanday va qachon shakllanganligi xususidagi tarixiy faktlarga murojaat qiladi. Jurnalistika sohasidagi tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif etilgan tizim, metodika, baholash mezonlaridan jurnalistika yo'nalishlari ta'limi mazmuni va metodik asoslarini takomillashtirish, jurnalistika terminlarini o'rgatishga oid ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish foydali ekanligini ta'kidlaydi.

Maqolada ishlab chiqilgan takliflar va amaliy tavsiyalarda oliy ta'limning jurnalistika yo'nalishlaridagi ingliz tilida tahsil olayotgan talabalarga OAV terminlari bo'yicha leksik kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish, o'quv dasturlarini takomillashtirish yuzasidan nazariy tushunchalar berilgan. Jurnalist talabalarga xorijiy tillarni o'rgatishda kompetensiyaviy yondashuv muhim ahamiyat kasb etishiga maxsus e'tibor qaratilgan. Til ko'nikmalarining, asosan, kommunikativ kompetensiyalarning jurnalist talabalarga nafaqat til o'rganishda, balki kasbiy ko'nikmalarini shakllantirishda ham muhimligi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Jurnalist talabalarni kasbga tayyorlashda trening va loyiha usullarining ahamiyati o'rganilgan. Kompetensiyaviy yondashuv va ushbu ikki usul

Zukhra Khazratova

Independent researcher, Uzbekistan State World
Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: khazratova1980@mail.ru

THE ROLE OF COMPETENT APPROACH TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO JOURNALISM STUDENTS

ANNOTATION

The introductory part of the article presents historical facts about the field of journalism and how and when its primary education was formed. Also, the scientific significance of the research results in the field of journalism is explained by the usefulness of the proposed system, methodology, evaluation criteria to improve the content and methodological basis of journalism in higher education, and researches on teaching journalism terms.

Practical significance of the research results, the developed proposals and practical recommendations provide theoretical insights on the formation and development of lexical competence in media terms, improvement of curricula in students majoring in journalism in higher education in English. The main part of the article is devoted to the importance of a competent approach to teaching foreign languages to journalism students. Theoretical and practical analysis of the importance of having language skills, mainly communicative competencies, for journalism students not only in language learning but also in the formation of professional skills is analyzed in the article. It mainly studies the importance of training and project methods in training journalists for the profession. The theoretical aspect of the article is mainly based on the competency approach and these two methods with the opinions of the researchers.

In the practical part of the article, based on the

bu sohada ish olib borayotgan tadqiqotchilarning nazariy qarashlari orqali asoslab bergan.

Maqolaning amaliy qismi jurnalistika fakulteti talabalari bilan o'tkazilgan tajribalar natijasida talabalarda ijtimoiy munosabatlarni o'rnatish, yuzaga keladigan vaziyatlarni o'z nuqtai nazari va birgalikda tahlil qilish, muloqot va faoliyat jarayonida o'zi va o'zgalarni anglash va anglatishning o'ziga xos xususiyatlarini qay tarzda rivojlantirib borilganligi yoritilgan. Loyiha usuli natijalarida talabalarning til darajasi oshganligi va boshqa – mutaxassislik fanlari ustida ham jiddiy ishlanganliklari misollar bilan dalillangan. Xulosa qilib aytganda, ingliz tilini o'rganishda qo'llaniladigan yondashuvlardan biri – kommunikativ yondashuvdir. Bu usul ingliz tilini o'qitishda til amaliyoti, qo'rquv va til to'siqlarini yengib o'tishda yordam beradi. Jurnalist talabalarga chet tilni o'rgatishda kompetensiyaviy yondashuvdan dars davomida foydalanish talabalarning kasbiy mahorati va o'zga tilda so'zlashish imkoniyatlarini oshirishi uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: kompetensiyaviy yondashuv, kommunikativ kompetensiya, trening, loyiha usuli, ko'nikma, jurnalist, kasbiy mahorat.

theory, an experiment was conducted with students of the Faculty of Journalism. As a result of the project method, students' language skills increased and they worked on other specialties. In short, there are different approaches to learning English, and one of them is the communicative approach. This method helps to overcome language practice fear and language barriers in teaching English. The use of a competency-based approach in teaching foreign languages to journalist students during the lesson is an important factor in improving students' professional and language skills in their fields.

Key words: competence approach, communicative competence, training, project method, skill, journalist, professionalism.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet tillarni o'qitish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori chet tili o'qitish sohasini tubdan o'zgartirish zaruratini talab qilmoqda. Mazkur qarorga muvofiq, Yevropa Kengashi-ning (CEFR) "Chet tilini egallashning umumevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish, baholash" to'g'risidagi hujjatining ayrim namunalarini nazarda tutib, O'zbekiston Respublikasining uzluksiz ta'lim tizimi uchun chet tillarni o'rganish, o'qitish bo'yicha yangi Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi ishlab chiqildi. Shundan ko'rinib turibdiki, hozirgi kunda chet tili o'qitish metodikasini xorijiy til ta'lim metodikasidan o'rgangan xolda rivojlantirish har birimizning oldimizdagi vazifalardan biridir. Bugungi globallashtirish jarayonida chet tilini jamiyatdagi maqomi o'zgarib bormoqda, uning funksiyalari kengaymoqda, bunday o'zgarishlar kasbga tayyorlash jarayonini ham tubdan o'zgartirishga qaratilganini kuzatish mumkin. Ta'lim sohasida keng qamrovli islohotlar olib borilishi natijasida, zamonaviy talablar asosida ta'lim sifatini oshirish tizimi yaratildi. Shu jumladan, chet tili o'qituvchilarini xalqaro malaka talablariga asoslangan milliy tizim yaratildi. Shu bilan birga chet tili o'qituvchilarining darslarini ilmiy jihatdan sifatli tashkil etishda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan yondashuvlarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish

ishlari amalga oshirilmoqda.

Globalashuv va taraqqiyot davrida ta'lim modellarining rivojlanishi kadrlar tayyorlash sifatini innovatsion yondashuvlar asosida doimiy takomillashtirib borish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda inson kapitali sifatini oshirishda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar integratsiyasi alohida ahamiyat kasb yetib, YUNESKO ta'lim siyosatini yuritish sektori (Education sector)ning 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "umrbod sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratish (Lifelong learning)"ga alohida e'tibor qaratilgan. Unda ta'limni sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarish, raqobatbardosh va professional kadrlarni tayyorlashda bo'lajak mutaxassislarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb vazifa etib belgilangan.

Jahon pedagogikasida ta'limga kompetent yondashuvning jadallashishi oliy ta'limda bo'lajak mutaxassislarning kasbiy layoqatini shakllantirishda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishni, talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash mobaynida ularning sohaviy nutqini ham o'stirib borishni dolzarb vazifalardan biriga aylantirdi. Bugungi kun mutaxassisining xalqaro standartlar darajasiga mos, kompetentli va raqobatbardoshli bo'lishida uning ish faoliyatida samarali muloqot yurita olishi muhim ahamiyatga ega.

Bugun dunyodagi yetakchi ilmiy markazlar va oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak jurnalistlarning kasbiy innovatsion rivojlantirish modellarini ishlab chiqish, axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositasida shaxsga yo'naltirilgan o'qitish tizimlarini yaratish va ularni amalga oshirishning innovatsion texnologiyalarini tatbiq etishga oid ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Ayniqsa, jurnalistlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning ijtimoiy-madaniy mexanizmlarini rivojlantirish, variativ dasturiy ta'minotini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, innovatsion ta'lim muhiti sharoitida ularda global kompetentlikni rivojlantirish alohida dolzarblikni talab etadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning jurnalistika sohasi va jurnalistlar haqida aytgan fikrlariga etibor qaratsak: "Bugungi kunda barcha darajadagi boshqaruv idoralari rahbarlarining ommaviy axborot vositalari vakillari, jurnalistlar bilan muntazam uchrashib, jamiyat hayotiga daxldor muhim masalalarni erkin muloqot asosida keng muhokama etishi yaxshi an'anaga aylanib bormoqda. Biz bunday yondashuvni O'zbekistonda olib borilayotgan ochiqlik, oshkoralik va demokratik siyosatning eng muhim yo'nalishlaridan biri deb bilamiz hamda milliy manfaatlarimizga javob beradigan bu yo'lni qat'iy davom ettiramiz.

Shu sababli ommaviy axborot vositalarining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'siri, faoliyat samaradorligi va ta'sirchanligini oshirish, ularning moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyatini mustahkamlash, soha xodimlarining mehnatini har tomonlama rag'batlantirish biz uchun hamisha ustuvor vazifa bo'lib kelmoqda" [Mirziyoyev, Sh., 2021].

Yer yuzida jurnalistikaning paydo bo'lish sabablari kishilikning ilk davrlariga borib taqaladi. Insonda muayyan tushunchalarni o'zaro almashish ehtiyoji, avvalo, tilning paydo bo'lishiga, so'zning vujudga kelishiga asos bo'lgan. Sohaning

yetakchi olimlari ham “kishilarning yangilikka bo‘lgan ehtiyoji jurnalistikaning paydo bo‘lishiga asos bo‘lgan”, deb izohlaydilar. Jurnalistika paydo bo‘lishining tub sabablari F.Sibert, T.Piterson va U.Shrammning “Matbuotning to‘rt nazariyasi”, F.Fatorelloning “Axborotning ijtimoiy texnikasi” asarlarida asosli bayon qilingan.

Asrlar mobaynida inson tafakkurining taraqqiyoti natijasida yozuv vujudga keldi, bu esa o‘z navbatida bosma so‘z – matbuotning kelib chiqishiga sabab bo‘ldi.

Ammo jurnalistika so‘zdan avval paydo bo‘lganini unutmaslik kerak. U o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmadi. Uning vujudga kelishida qator mafkuraviy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma‘naviy va moddiy-texnik shart-sharoitlar ham mavjud bo‘lishi kerak edi.

Jurnalistikaning ilk namunalari sifatida eramizdan avvalgi I asrda Rim imperatori Yuliy Sezar tomonidan chiqarilgan ganchdan yasalgan maxsus taxtachalarga yozilgan axborotlarni keltirish mumkin. Undan keyin – VIII asrda Xitoyda “Poytaxt yangiliklari” gazetasi vujudga keldi. Yaponiyada ham xuddi shu usulda taxtaga o‘yib yozilgan gazetalar chiqarildi. O‘sha mamlakatlar hukumatlarining ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy qarashlarini, yanada aniqroq aytganda, manfaatlarini aks ettirgan o‘sha davr jurnalistikasini jahon jurnalistik taraqqiyotining birinchi ilk bosqichi deb ta‘riflash to‘g‘ri bo‘ladi.

XVI asrning o‘rtalarida germaniyalik Yohan Gutenberg ilk bosma dastgohni ixtiro qilib insoniyatning madaniy-ma‘naviy taraqqiyotiga ulkan xissa qo‘shdi. Bu esa o‘z navbatida jahon jurnalistik taraqqiyotiga poydevor bo‘lib xizmat qildi.

Shu davrdan boshlab Yevropada bosma gazetalar paydo bo‘la boshladi. Germaniyada, Angliyada, Fransiyada, Rossiyada chiqa boshlagan gazetalarni bunga misol sifatida ko‘rsatish mumkin.

Ammo, jurnalistika ta‘limi ancha keyin paydo bo‘ldi. Jurnalistlarga kollej yoki universitetda ta‘lim berish orqali jurnalistika sohasini rivojlantirish g‘oyasi XIX asrning ikkinchi yarmida AQShda vujudga kelgan. Yigirmanchi asrning Amerika Qo‘shma Shtatlari jurnalistikani oliy ta‘limda eng ko‘p o‘qitadigan yagona maskan edi. Faqat 1980–1990 yillarga kelibgina jurnalistika butun dunyo bo‘ylab, asosan, yangi universitetlarda fan sohasi sifatida qabul qilindi. Bu davrga kelib Qo‘shma Shtatlar jurnalistikada yangi qadam tashlashga ulgurgan edi. Mamlakat nafaqat jurnalistika ta‘limini, balki yangiliklar jurnalistikasini ham kashf etdi. Chelebining fikricha, bugungi kunda biz foydalanadigan jurnalistika – anglo-amerikaliklarning ixtiroi.

Yevropadagi jurnalistika adabiyot sohasi bilan chambarchas bog‘liq edi, sababi – kundalik xabarlarini yorituvchi muxbirlarning iste‘dodi va yozish qobiliyati adabiyot orqali shakllantirilardi. Jurnalistlarga kollejda ta‘lim berish g‘oyasini AQSh fuqarolar urushining mag‘lub generali Robert Ye Li taklif etgan. Hozirda Virjiniya shtatida uning nomidagi jurnalistlarni tayyorlovchi universitet mavjud. Shu davrdan boshlab jurnalistika ta‘limi paydo bo‘ldi.

ASOSIY QISM

Hozirgi yosh kadrlarning qiziqishlarini va zamon talablarini hisobga olgan holda kommunikativ metodlardan foydalanib darsni rejalashtirish ham yaxshi samara beradigan usullardan. Bu til o‘rganish bilan birga talabalarning kasbiy mahoratini

o'rganayotgan til orqali o'stirishga yordam beradi hamda ulardagi til o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni oshiradi.

Barchamizga ayonki, jurnalistning shakllanishi asosan oliy ta'lim muassasida boshlanadi. Jurnalstning kasbi unda turli xil ko'nikmalar mavjud bo'lishini talab qiladi, jumladan, chet tillari, an'analari va xususiyatlarini bilish, va shu bilimlarni qo'llagan holda o'zga madaniyat vakillari bilan muloqot qila olish. Bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi muhim bosqichlardan biri – oliy ta'lim muassasasida to'g'ri kompetensiyaviy yondashuvini amalga oshirishdir. Til o'rganishda kompetensiyaviy yondashuvning maqsadi – ta'lim kompetensiyalarini shakllantirishdir. Ta'lim kompetensiyalari, bu – talaba shaxsining ta'limiy va kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lishdir. Kompetensiyaviy ta'lim olish deganda, til o'rganuvchining o'z shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyatini amalga oshirish uchun mavjud umumiy qobiliyati va tayyorligini belgilovchi bilimi, qobiliyati, ko'nikma va tajribasining yig'indisi tushuniladi. Hozirgi kunda ta'lim muassasalarida chet tilini o'rganishda fonologiya, morfologiya, lug'at va sintaksis kabi lingvistik ko'nikmalarni rivojlantirmasdan kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish qiyin. Bugungi kunda ingliz tili o'qituvchilari ushbu sohada ko'plab muammolarga duch kelmoqdalar. Ularning sa'y-harakati talabalarning tinglab tushunish, o'qish, gapirish va yozish hamda kommunikativ til ko'nikmalarini o'stirishga qaratilgandir [Dvorghets O.S., Shaturnaya Y.A., 2015; 192–193].

Ushbu yondashuv asosida yangi bakalavrlilik va magistrlik dasturlari ishlab chiqiladi, o'quv-metodik majmualar yaratiladi. Oliy o'quv yurtini tamomlayotgan bo'lajak jurnalistlar bir qator kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim. Ularni uchta yo'nalishga ajratish mumkin. Bular: *analitik*, *tizimli* va *aloqaga doir* ko'nikmalardir. Analitik kompetensiyalar quyidagi tarkibiy qismlarga ega: axborot va bilimlarni boshqarish, olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va sintez qilish. Tizimli kompetensiyalar ko'p jihatdan shaxsning nafaqat kasbiy, balki uning butun hayoti davomida shaxsiy rivojlanishini ham belgilaydi. Tizimli kompetensiya mustaqil ishlash va o'rganish, shuningdek, bilimlarni amalda qo'llash kabi kompetensiyalarda yuzaga chiqadi.

Ushbu kasbiy bilimlar kelajakdagi jurnalistlarga mustaqil ravishda bilimlarni egallashga va oliy ta'lim muassasasini bitirgandan keyin amalda qo'llashga imkon beradi. Jurnalstning kasbiy faoliyatida kommunikativ kompetensiyalar juda muhim va jiddiy talab qilinadigan kompetensiyalardir, chunki ular tarkibiga chet tillarni bilish, turli madaniy muhitda ishlash, turli sohalar mutaxassislari bilan o'zaro muloqotga kirishish va bag'rikenglik kommunikativ xatti-harakatlarini namoyish etish qobiliyati kiradi. Maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan kasbiy mahoratni rivojlantirishning muhim vositasi bu o'quv materiallari hisoblanib, o'quv jarayonining asosini tashkil etadi. Shuning uchun fanlarning tarkibiy qismi va mazmuni muhim ahamiyat ega [Sokolova E.Ya., Golovacheva E.A., Chernaya A.A., 2015; 193]. Kommunikativ kompetensiyalarga tillarni bilish, odamlar bilan (atrofdagi va uzoqdagi) muomala usullari va hodisalar, guruhda ishlash ko'nikmalari, jamoada turli xil ijtimoiy rollarni egallash kiradi. Talaba o'zini tanishtirishi, xat, anketa, bayonot yozishi, savol bera olishi, muhozara olib borishi va boshqalarga ega bo'lishi zarur. Ta'limning har bir bosqichidagi

o'quv jarayonida ushbu malakalarni shakllantirish uchun zarur va yetarli miqdordagi haqiqiy aloqa ob'yektlari va ular bilan ishlash usullari belgilangan. Chet tillarni o'rganishda kommunikativ kompetensiyalar, asosiy kompetensiyalardan biri hisoblanib, chet tilini o'zlashtirishda kommunikativ kompetensiyalar o'qitishning asosiy funksiyasini amalga oshiradi.

Bo'lajak jurnalistlarni kasbga tayyorlashning asosiy va samarali usullaridan biri – treninglar tashkillashtirish deb hisoblaymiz. “Trening” atamasi (ingliz tilidan “Training”) bir qancha ma'nolarni anglatadi: o'qitish, tarbiyalash, tayyorlash, va boshqlar. Shunga o'xshash noaniqlik ilmiy adabiyotlarda berilgan ta'riflarda tez-tez uchraydi.

Treninglar har qanday murakkab faoliyat turini o'rganish va o'zlashtirish qobiliyatini rivojlantirish usullari guruhi, shuningdek, shaxsning xulq-atvori va faoliyatini boshqarish modelini qayta dasturlash usuli sifatida belgilangan [Emelyanov Yu., 1985; 78]. Trening “shaxsga samarali ijtimoiy munosabatlarni o'rnatish, yuzaga keldigan vaziyatlarni o'z nuqtai nazarini va sherikchilik asosida tahlil qilish, muloqot va faoliyat jarayonida o'zi va o'zgalarni bilish va anglashning o'ziga xos xususiyatlarini rivojlantirish uchun maxsus mahorat va ko'nikmalarni shakllantiruvchi faol ta'lim usuli” [Vachkov I. B., 2007; 5].

Biz chet tilidagi darslar davomida treninglar o'tkazdik va bunday treninglar davomida lingvistik komponent ham, psixologik-ijtimoiy elementlar ham ishtirok etdi. Aloqa kompetensiyalarini shakllantirish uchun ushbu uslubning qo'llanilishiga misol umumiy madaniy trening yoki o'z-o'zini anglash treningi bo'lishi mumkin. Buning natijasida talabadan o'zini muayyan madaniyat vakili sifatida anglashi, o'z madaniyatidagi xatti-harakatlar normalari, qadriyatlari va qoidalarini anglash darajasiga yetkazishi talab qilinadi. Shundan so'ng madaniyatlar o'rtasidagi farqlarni ko'rsatish va tahlil qilish, so'ngra ushbu farqlarni sezish va ularni samarali kommunikativ ta'sir o'tkazish uchun qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin bo'ladi.

Aloqa bo'yicha treninglar kelajakdagi mutaxassisni muayyan madaniyat doirasida o'zaro munosabatlarga tayyorlaydi. Ular quyidagilar bo'lishi mumkin:

- boshqa madaniyat haqida ma'lumot beruvchi – kognitiv;
- chet el madaniyatida hayot va kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan xulq-atvor, amaliy ko'nikmalarni o'rgatuvchi;
- ijtimoiy xatti-harakatni boshqa madaniyat nuqtai nazaridan izohlovchi – uning xususiyati.

O'qitishning nomlangan turlari orasida, bizningcha, eng muhimi atributivdir, chunki u izomorfik atributlarning o'zlashtirilishiga, ya'ni bu muloqot qilinuvchi madaniyat vakillariga xos madaniyatni o'rganishga hissa qo'shadi. Boshqa madaniyat vakillari bilan kommunikativ aloqada muammolarning aksariyati bir-birining xatti-harakatlari sabablarini tushunmaslikdan kelib chiqadi.

Odamlar muayyan vaziyatda tegishli xatti-harakatni kutadilar va bunga erishmagach, ular bilan muloqotda bo'lgan kishi haqida yolg'on xulosalar chiqaradilar. Shunday qilib, atributiv mashg'ulotlar jarayonidan ko'zlangan asosiy maqsad bizni qiziqtirayotgan madaniyatga xos atributlar bilan tanishishdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun bir nechta vazifani ko'rib chiqamiz.

1. Samarali muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirish, suhbatdosh bilan muloqot qilish va o'zaro aloqalarni o'rnatish, nizolarning oldini olish yoki ularni hal qilish. Trening davomida ishtirokchilar, shuningdek, nizolarning turlari, ular yuzaga kelishining asosiy sabablari, nizolarning ijobiy va salbiy ta'siri, ularning oldini olish, nizoli vaziyatlarda o'zini tutishning individual uslublari to'g'risida ma'lumot oladilar.

2. Nutqning aloqa vositalaridan faol foydalanish qobiliyatini shakllantirish, boshqalarga og'zaki ta'sir qilish usullarini ishlab chiqish (ishontirish, targ'ibot, taklif), sherik uchun nutqning o'zaro ta'sir uslubini tanlashga o'rgatish.

3. Suhbatdoshni, uning o'z harakatlari maqsad va sabablarini tushunish qobiliyatini rivojlantirish. Bunda ishtirokchilar atrofda odamlarni idrok etishdagi odatiy xatolari va muloqotni davom ettirish uchun sheriklarida ijobiy munosabatni shakllantirish usullari to'g'risida bilimlarga ega bo'ladilar.

4. Imij yaratish texnologiyalari, xususan, tashqi ko'rinish, yurish-turishning ahamiyati, nutqning og'zaki bo'lmagan tarkibiy qismlari, o'z imijini o'zgartirish usullarini sinab ko'rish to'g'risida bilimlarga ega bo'lish.

5. Muloqot qilishdagi tortinchoqlik, shuningdek, xavotirga tushish va o'ziga bo'lgan ishonchning bo'lmashligini yengib o'tish. Trening davomida talabalarga tavsiflash va ifodalashning ba'zi usullari, o'z-o'zini anglash, o'zini yetarli darajada baholash va o'zining kuchli va zaif tomonlarini anglash o'rgatiladi.

Biz bir qancha trening materiallarini ishlab chiqdik va ziddiyatli vaziyatni tahlil qilish, hissiy jihatdan tartibga solish va undagi xatti-harakat uslubini o'rgatishga qaratilgan bir qancha o'ziga xos o'quv mashqlari va o'zgartirilgan mashqlar shakllantirildi. Treninglar ikkinchi kursda tahsil oluvchi 12 talabadan iborat jurnalist talabalar guruhida chet tili darslari davomida o'tkazildi. Barcha topshiriqlar individual ravishda bajarildi. Tavsiya etilgan mashqlardan biri – qator vaziyatlarni tavsiflovchi anketa ko'rinishida edi:

1) bir kishi siz bilan uchrashuvga kelishilgan vaqtdan 30 daqiqa kechroq keladi;
2) siz suhbatlashayotgan odam sizning ko'zingizga qaramaydi;
3) turmush o'rtog'i bilan yonma-yon borayotgan ayol qo'lida og'ir sumka bilan ketmoqda;

4) mehmon uy bekasiga foydalanilgan idishlarni oshxonaga olib borishi uchun yordam beradi;

5) imtihon paytida bir talaba boshqasidan ko'chiradi.

Talabalardan ushbu holatlarga, agar ularning o'zlari ishtirokchi sifatida harakat qilsalar, qanday munosabatda bo'lishini tavsiflashlari, yoki ular guvoh bo'lsalar, o'zlarini qanday tutishlarini izohlashlari so'ralgan. Shunday qilib, talabaning nostandart kommunikativ vaziyatlarga munosabati tekshiriladi.

Ikkinchi qismda talabalar bir xil vaziyatlarning ma'nosini boshqa madaniyat vakili nuqtai nazaridan aniqlashlari kerak edi: 1-, 2-, 4- va 5-vaziyatlarda – G'arbiy Yevropa va Amerika madaniyati holatida, uchinchi vaziyatda esa Sharq madaniyati holatida. Topshiriqlarning ushbu qismida talabalar boshqa madaniyatlarni qanchalik yaxshi egallaganliklari va o'zlarini dunyoqarashi va nuqtai nazari o'zgacha bo'lgan

odamlar o'rniga qo'yishlari tahlil qilinadi. Ushbu vazifani ham alohida, ham guruhda bajarish mumkin.

Topshiriqni bajarish jarayonida aksariyat talabalar o'zlarini G'arb madaniyati vakili o'rniga qo'yishlari osonroq ekanligi aniqlandi, shuning uchun uchinchi vaziyatda erkaklarning harakatlari asosan salbiy bahoga olib keldi, garchi ulardagi bunday xulq-atvor bir qator sharqiy mamlakatlarda odatiy hol ekanligini tushunsalar ham.

1- va 2-vaziyatlarda ishtirokchilarning fikrlari ikkiga bo'lindi. Ularning yarmi tasvirlangan vaziyatlarda hech qanday yomon narsa yo'q degan fikrga kelishdi va agar ular hayotda bunday vaziyatlarga duch kelishsa, bunga ahamiyat bermasliklarini bildirishdi. Talabalarning qolgan yarmi uchun, aksincha, bu holatlarni G'arb madaniyati vakili nuqtai nazaridan tahlil qilish ancha oson edi. Ular ogohlantirishsiz uchrashuvga kechikkan odamga nisbatan hukm chiqarishgan. Suhbatdoshning ko'ziga qaramaydigan odam unga ishonmaydi, chunki u nimanidir yashiradi deb hisoblashdi.

4-vaziyatda talabalarning birortasi uy bekasiga yordam berayotgan mehmonning xatti-harakatlarida mutlaqo o'zgacha va beg'araz narsalarni topa olmadi. Beshinchi holat talabalar ikkiga bo'linganligi sababli qizg'in muhokama mavzusiga aylandi. O'n ikki talabadan to'rttasi, aldanayotgan talabaning o'rnida bo'lishganida, agar ular qiyinchiliklarga duch kelayotganini ko'rsalar, o'zlari kursdoshlariga yordam berishlarini taklif qilishlarini aytishdi. Yetti kishi, agar ulardan ko'chirishmoqchi bo'lsalar, qarshi bo'lmazliklarini bildirishdi. Faqat bitta talaba hech qanday holatda undan ko'chirishlariga ruxsat bermasligini aytdi. Shu bilan birga, barcha talabalar o'qituvchiga hech qachon kursdoshlarining boshqalarning ishini ko'chirgani to'g'risida aytmazliklarini ta'kidladilar. Shunday qilib, oxirgi holatda garchi talabalar plagiat uchun qat'iy jazo choralari borligini bilishsa-da, ular uchun g'arb madaniyatni vakili nuqtai nazaridan vaziyatni ko'rish eng qiyin bo'lganligiga guvoh bo'ldik.

Ushbu mashqning asosiy maqsadi talabalarni boshqa madaniyat vakillari bilan muloqotga kirishda duch kelishi mumkin bo'lgan turli xil kommunikativ vaziyatlar bilan tanishtirish edi. Shu bilan birga, ular ma'lum bir mamlakatning urf-odatlarini va an'analarini hurmat qiladigan, insonlarning o'tmishi va muayyan vaziyatga aloqador tomonlarning o'sha vaziyatini hisobga oladigan to'g'ri xatti-harakatlarini ishlab chiqishlari kerak.

Chet tili o'qituvchisining muhim vazifasi – mashg'ulotda bag'rikenglik muhitini yaratishdir. Shubhasizki, sinfda erkin muhit mavjud bo'lmaganda, kelajakdagi jurnalistlarda kommunikativ vakolatlarini shakllantirish mumkin bo'lmaz.

Biroq quyidagilarni ta'kidlash ham juda muhim: "Muayyan muhit uni shakllantirish uchun faqat salohiyat imkoniyatlarini o'z ichiga oladi va shakllanish jarayonining o'zi o'qituvchi tomonidan atrof-muhit imkoniyatlaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi. To'g'ri tashkil etilgan ta'lim axborot muhiti talabalarga uni o'zlariga moslashtirishga imkon beradi va bu uning haqiqiy axborot muhitidan tubdan farq qiluvchi xususiyati hisoblanib, bunda moslashish har doim ham sodir bo'lmaydi" [Rakitina E., 1999; 21]. Ushbu fikrdan kelib chiqib, aytilish mumkinki, auditoriyada to'g'ri tashkil etilgan, erkin kommunikativ muhit talabalarga uni

o'zlarida shakllantirish, yashash, harakat qilishni o'rganish va bunday sharoitda kasbiy vazifalarni bajarishga imkon beradi. Auditoriyada erkin muhitni yaratish, avvalo, o'quv intizomi mazmuni bilan bog'liq.

Har bir fan nafaqat "o'z" usullarining, balki o'ziga xos bo'lgan va uning tarkibiga bog'liq bo'lgan bag'rikenglik muhitining shakllanish uslublarining ham qo'llanilishini talab qiladi.

Chet tili darslarida bag'rikenglik muhitini yaratish metodikasiga misollar keltiraylik. Ushbu texnikalardan biri, bu – o'rganilayotgan o'quv materialining mohiyati va yo'nalishidan foydalanishdir. Shunday qilib, zamonaviy ingliz tilida "siyosiy to'g'rilik" hodisasi katta ahamiyatga ega. Ingliz tilining to'g'ri qo'llashni kuchaytirish yuqori darajadagi ijtimoiy madaniyat, shaxsga sig'inish va uning individual dunyosi asoslarini e'lon qilgan jamiyatning madaniyati, kommunikativ xatti-harakatlari, mafkurasi va mentaliteti bilan bog'liqdir. Shuningdek, tadqiqotchi "har bir xalq va har bir tilning madaniy va nutq an'alarini bilmasdan turib, madaniyatlararo aloqa bo'lmaydi, lekin madaniyatlar ziddiyati mavjud" [Ter-Minasova S., 2008; 228]. Aynan o'quv materialining ushbu xususiyatidan biz sinfda bag'rikenglik muhitini yaratish usuli sifatida foydalanishni taklif qilamiz.

Bizning o'quv mashqimiz davomida talabalar bir nechta guruhlariga (4-5 nafardan) bo'linishga va siyosiy jihatdan to'g'ri so'zlarning o'zbek tilidagi va ingliz tilidagi misollari bilan guruhlarda "siyosiy to'g'rilik" tushunchasiga o'zlari ta'rif berishlari so'raldi.

Kirish qismidan so'ng guruhlariga "siyosiy jihatdan noto'g'ri" so'zlar yozilgan blankalar beriladi va talabalarga ushbu tushunchalarga siyosiy jihatdan to'g'ri ekvivalentlar beriladi:

- 1) blind (ko'r);
- 2) disabled (nogiron);
- 3) fat people (semiz odamlar);
- 4) mankind (insoniyat);
- 5) orientals (sharqliklar);
- 6) policeman (politsiyachi) uchinchi dunyo mamlakatlari).

Guruhlar siyosiy jihatdan to'g'ri ekvivalentlarning o'z variantlarini aytgandan so'ng, o'qituvchi to'g'ri so'zlarni beradi. Taklif etilgan variantlar tahlil qilinadi. Shundan so'ng, o'qituvchi talabalarning so'zlarni uslubiy xususiyatlarini qay darajada egallaganligi haqida xulosa qilishi va ba'zi so'zlarning siyosiy jihatdan to'g'ri kelishini, boshqalarini esa yozma yoki og'zaki nutqda ishlatishni istamaydigan ekstralingvistik sabablarini tushunishi mumkin.

Shunday qilib, mashg'ulotlar umuman shaxsning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan va natijada uning kelajakdagi kasbiy faoliyatidagi xatti-harakatlarini o'zgartiradigan samarali vosita bo'lishi mumkin.

Mustaqil izlanish ishlari ham kelajakdagi jurnalistlarda turli xil malakalarni shakllantirishning muhim usuli hisoblanadi. U chet tili darsida individual va guruhli loyihalarni bajarish shaklida amalga oshirilishi mumkin. **Loyiha usuli** "bajarib o'rganish" g'oyasini ilgari surgan J.Devining pragmatik pedagogikaning asosiy

tushunchalariga asoslangan. U o'zining "Maktab va jamiyat" kitobida shunday deb yozgan edi: "Bolaning nuqtai nafari bo'yicha, maktabning eng katta kamchiligi uning maktabdan tashqarida, maktabning o'zida olgan tajribasidan to'liq, erkin foydalanish imkoniyatining yo'qligidan kelib chiqadi. Va, aksincha, boshqa tomondan, u maktabda o'rgangan narsalarini kundalik hayotda qo'llay olmaydigan bo'lib chiqadi". J.Devi tomonidan ilgari surilgan nazariyaning yanada rivojlantirilganligi va tavsiflanganligini uning izdoshi V.Kilpatrikning asarlarida ko'rish mumkin. Ushbu uslubning mohiyati talabaning shaxsiy manfaatlariga mos keladigan maqsadga muvofiq faoliyati orqali faol ta'lim olishidir. Loyiha usulining asosiy kuchi shundaki, bunda talabalar qaysi kursda o'qishidan qat'i nazar, ular darhol mutaxassislikka o'tadi va bu kelajakdagi kasblariga doir ma'lumotlarni yig'ishga motivatsiya bo'ladi. Loyiha usulida o'qitish talabaning o'z taqdirini o'zi belgilashga yordam beradi [Bolsunovskaya L.M., Phillips K., Korotchenko T.V., Matveenko I.A., Strelnikova A.B., Ulyanov O.S. 2015; 177.].

Loyiha usulini amalga oshirish uchun bir qator shartlar bajarilishi lozim. Eng muhim shart – talaba va o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlarning o'zgarishidir. Talaba o'quv jarayonining asosiy sub'yekti, o'zaro ta'sir va ijodiy o'zini rivojlantirishning sub'yekti, o'zini o'zi tarbiyalashga qodir, shuning uchun o'zini o'zi takomillashtirishga qodir shaxs bo'lishi kerak. "Buning uchun u inson qiyofasini avval maktabda, keyin universitetda, keyin umr bo'yi egallashi kerak. Madaniyat zarrachasining o'z hissasi, o'ziga xosligi bilan umuminsoniy muhitga kirishi lozim. Meros emas, balki ijod faoliyati (havaskor faoliyati) orqali madaniyatni yaratishi lozim" [Kan-Kalik V., 1987; 97]. Loyihaga asoslangan ta'lim (PBL o'quvchilarni kasbga yo'naltirilgan loyihalarni amalga oshirishi va xaqiqiy mahsulotlarni ishlab chiqarish orqali bilimlarni shakllantirishga asoslangan o'qitish uslubini anglatadi [Brundiers K., Vieck A., 2013; 5–4]. Loyihaga asoslangan til o'qitish ta'limi talabalarining kasbiy bilimlarini [Alsamani A., Daif-Allah A., 2016; 51-64], [Mohamadi Z., 2018; 363–385], o'rganish strategiyalarini [Barak M., Dori Y., 2005; 117–139] til ko'nikmalarini [Brassler M., Dettmers J., 2017; 11(2)], motivatsiya [Helle L., 2007; 397-411] va yaratilgan mahsulot sifatini oshiradi [Affandi A., Sukyadi D., 2016; 23-40].

O'qituvchining pozitsiyasi (o'rni) ham o'zgarishi kerak. U faqat ikkita fikr: mening fikrim va noto'g'ri fikrlar mavjud bo'lgan avtoritar, manipulyatsion, ijtimoiylashuvchi pedagogikadagi qarashlardan chetlanishi lozim. O'qituvchi o'zini boshqalarning fikrini hurmat qilishni biladigan, o'rinlarni taqsimlashga va birlashtirishga tayyor, mulohaza yuritishga qodir shaxs sifatida namoyon etib, qo'llab-quvvatlash pedagogikasini tan olishi kerak.

Natijada, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning tenglik sub'yekt xarakteri shakli ta'minlanadi. "O'qituvchi – talaba" tizimidagi munosabatlarning teng sub'yektiv (interactive) tabiati o'qituvchi va talabalarining o'z tajribalariga asoslanib o'rganishni nazarda tutadi, bunda o'qituvchi mavjud tajribani o'zgartirishda maslahatchi-yordamchi va tashkilotchi vazifasini bajaradi, talabalar tashabbusi uchun sharoit yaratadi.

Yana boshqa muhim shart, bu – talabalarni fanlardan tashqari o'quv faoliyatiga jalb qilishdir. Fanlardan tashqari o'quv faoliyati bu talabalarining o'zlari tomonidan

yangi kasbiy tajribani rivojlantirish maqsadida ilmiy bilimlarni tashkil etishga qaratilgan faoliyatdir. Ta'lim jarayonida o'qituvchi fanlardan tashqari o'quv faoliyatining quyidagi turlarini amalga oshirishi mumkin: tadqiqot, nazariy va kognitiv (muammolarni bayon qilish, gipotezani ilgari surish va sinovdan o'tkazish, g'oyalarni yaratish, eksperimentlarni modellashtirish va boshqalar); munozara (qarashlarni, vaziyatlarni aniqlash va taqqoslash, nuqtai nazarni bayon qilish va boshqalar); mavzu–tarkib (taqlid–o'yin) va ijtimoiy-psixologik jihatdan modellashtirish; refleksiv–epistemologik va hissiy-shaxsiy jihatdan (intellektual va hissiyotni) aks ettirish.

O'qituvchi va talabalar uchun harakatlar tizimini ishlab chiqish loyiha uslubini amalga oshirishdagi asosiy shart hisoblanadi. Birinchidan, o'qituvchi loyihaning mumkin bo'lgan mavzularini tanlaydi va talabalarga taklif qiladi, ular esa o'z navbatida muhokama qiladi va mavzu bo'yicha umumiy qaror qabul qiladi. Talabalarining o'zlari ham qandaydir mavzularni taklif qilishlari mumkin, bunda o'qituvchi bevosita muhokama jarayonida ishtirok etadi. Keyin esa talabalar, mavzularni o'zaro taqsimlab, kichik guruhlariga bo'linadi va o'qituvchi paydo bo'lgan muammolarni hal qilishda yordam beradigan tashkilotchi vazifasini bajarib, shuningdek qidiruv faoliyati uchun vazifalar, savollar ishlab chiqadi va adabiyotlarni taklif qiladi. Loyiha ustida ishlash jarayonida o'qituvchi talabalar faoliyatini muvofiqlashtiradi va rag'batlantiradi. Asosiy bosqich – loyihaning taqdimotidir. Unda talabalar bajarilgan ish natijalari to'g'risida hisobot beradilar. O'qituvchi imtihon tayinlashi yoki mutaxassis sifatida boshqa guruhlarning talabalari yoki o'qituvchilarni jalb qilishi mumkin. Taqdimotdan keyin talabalar va o'qituvchi faoliyatini aks ettirish va baholash lozim.

Baholash mezonlari, bu – loyihaning bevosita maqsadiga erishish va fondan tashqari mavzu maqsadlariga erishish, ya'ni mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, aloqa va tadqiqotchilik qobiliyatini egallash, shuningdek, tizimli fikrlashni rivojlantirish. Guruhga turli shaharlarning taqdimotlariga bag'ishlangan loyiha taklif qilindi. Har bir talaba o'zi tasvirlamoqchi bo'lgan shaharni tanlashi mumkin edi. Guruhning barcha a'zolari ilgari borgan yoki yoqtirgan shaharlarini tanladilar. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda ham, Yevropada ham Osiyo va Afrikadan katta miqdordagi muhojirlar oqimi mavjud bo'lib, ularning urf-odatlar va an'analari mahalliy aholi madaniyatidan juda farq qiladi. Shu nuqtai nazardan, turli dinlarga e'tiqod qiluvchi aholi guruhlari o'rtasida millatlararo nizolar va mojarolar paydo bo'lishi ehtimoli katta. Loyiha bo'yicha ish Yevropa shaharlarida yashovchi turli xil etnik guruhlar hayotini tavsiflovchi materiallarni yig'ish va taqdim etishdan iborat. Ushbu loyihaning maqsadi madaniy o'ziga xosliklarning e'tirof etilishiga erishish va boyitish, farq va tafovutlarni hurmat qilish, xurofot, stereotiplar va boshqa madaniyatlarga nisbatan nafratga qarshi kurash, shuningdek, etnik guruhlar o'rtasida madaniy yaqinlashish nuqtalarini aniqlashdir. Loyihada ishtirok etayotgan talabalar tanlangan shaharlarga borganida shakllangan shaxsiy taassurotlari va yig'ilgan materiallar tahlili asosida taqdimotlar qildilar (gazeta maqolalari, rasmlar, audio va videomateriallar).

Har bir talaba PowerPoint taqdimotini ingliz tilida tayyorlashi va ba'zi audio va video materiallardan foydalanishi kerak edi. Shuningdek, ular sayyohlar uchun

tavsiyalar bitilgan “etnomadaniy” bukletlar tayyorlashlari kerak edi. Masalan, Parij azaldan dunyoning gastronomik poytaxti hisoblanadi. Biroq, bugungi kunda u nafaqat taniqli fransuz oshxonalarini markazi, balki turli xil madaniyatlardan taomlar taqdim etadigan restoranlari bilan ham mashhur. Shunday qilib, Parij haqida taqdimot qilgan talaba ushbu xususiyatni ta’kidlab, shaharning etnik restoranlari haqida buklet tayyorlashi mumkin.

Ushbu loyiha bo’yicha olib borilgan ishlar talabalarga bilim berish nuqtai nazaridan katta ahamiyatiga ega edi, chunki bunda talabalar mustaqil ravishda internetdan ma’lumot qidirishlari va ko’p miqdordagi til materiallari bilan ishlashlariga to’g’ri keladi. Loyiha kamchiliklaridan biri shuki, ko’plab talabalarga ijodiy vazifalar berilishiga qaramay, bu ularda yangi til materiallari ustida ishlashni emas, balki taqdimot paytida ona tilidan foydalanish istagini uyg’otgan. Shunga qaramay, bunday loyihalarda qatnashish talabalarda yangi ma’lumotlarni izlash, so’ngra to’plangan materiallarni tahlil qilish, sintez qilish va tizimlashtirish zarurati bilan bog’liq holda tahliliy va tizimli fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Bundan tashqari, o’rta va yuqori (upper-intermediate and advanced) darajadagi bilimga ega talabalar uchun amaliyotga yo’naltirilgan loyiha uchun gazeta chiqarish uchun guruh tashkil etish mumkin. Buni tajribada sinab ko’rdik, guruhning ikkita jamoaga bo’linishi taklif qilindi, ularning har biri ingliz tilida (ikki yoki uch sahifadan ko’p bo’lmagan) o’z gazetasini chiqarishi kerak edi.

Bir jamoaning vazifasi tabloid (tabloid) tayyorlash, ikkinchisining esa sifatli gazeta (broadsheet) chiqarish edi. Har bir jamoada talabalar bosh muharrir, muxbir, sharhlovchi, muharrir (dizayn va dizayn rahbari) rollarini taqsimlab olishi kerak edi,

Tayyorgarlik jarayonida guruh ingliz nashrlarining tegishli gazetalarini o’rganib chiqib, munozara o’tkazdi, unda tabloid va sifatli gazeta o’rtasidagi jiddiy farqlar muhokama qilindi. Materiallarning turlari va uni turli nashrlarda namoyish etish usullari tahlil qilindi.

Dastlabki rejalashtirish bosqichida talabalar o’qituvchi bilan taklif etilgan loyihaning mazmuni va mohiyatini muhokama qiladilar: kerakli ma’lumotlarni tanlash va ularning turlari, maqolalar yozish, intervyu va boshqalar. Loyihani amalga oshirish bosqichida eng muhim vazifa – axborot yig’ishdir. O’qituvchi talabalarga manbalarni tanlash, materialni tahlil qilish, tahrirlash va loyihalashda yordam berishi lozim. Ushbu bosqichda talabalar nutq faoliyatining to’rt turi, ya’ni o’qish, gapirish, yozish va tinglashdan foydalanishlari juda muhimdir. Shu bilan birga, talabaning chet tilidan darsdan tashqari foydalanishi, u o’rganayotgan va ishlatadigan tillar orasidagi farqni bartaraf etishi katta ahamiyatga ega. Loyiha taqdimoti uchun har bir guruh rollarni belgilaydi, har bir ishtirokchi turli xil audio va video materiallardan foydalangan holda o’z hisobotini taqdim etadi. Taqdimot yakunida qolgan talabalar loyihani tahlil qilib, sharhlab, o’z takliflarini bildiradilar. Taqdimot jarayonida ular ijobiy tajribani ko’rishlari juda muhimdir.

Taqdim etilgan loyihani baholashda o’qituvchi til komponenti asosiy hal qiluvchi omil bo’lishi mumkin emasligidan kelib chiqishi kerak, chunki taqdim etilgan loyihaning mazmuni, izchilligi va mantiqiy tuzilishi, shuningdek, namoyish

etilgan ijod darajasi kabi jihatlarni hisobga olish zarur. Loyiha usuli ko‘plab til muammolarini hal qila olmasligi aniq, ammo shubha yo‘qki, loyiha talabalarga til darajasini yaxshilashga, shuningdek, boshqa maxsus fanlarda sinfda olgan bilimlaridan foydalanishga imkon beradi. Albatta, bu usulning bir nechta kamchiliklari ham bor:

– o‘qituvchi metodni qo‘llash uchun muayyan tayyorgarlikka ega bo‘lishi kerak, aks holda u talabalar faoliyatini muvofiqlashtira olmaydi;

– loyiha usuli ko‘p vaqtni talab etadi va bu boshqa faoliyatga zarar yetkazishi mumkin;

– guruh loyihasini amalga oshirayotganda, har bir ishtirokchining ishini baholash juda qiyin. Shunga qaramay, loyiha uslubining afzalliklari aniq va uni amalda qo‘llash ushbu usulning samaradorligi va maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi.

Loyiha metodining afzalliklari yaqqol ko‘rinib turibdi va uni amalda qo‘llash ushbu uning samaradorligi va maqsadga muvofiqligini isbotlaydi.

Bugungi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitlar hayotning barcha sohalarida o‘z qoidalarini belgilab bermoqda. Natijada, umuman ta‘lim tizimi va ayniqsa, kelajakdagi jurnalistlarni tayyorlash tizimi ham zamonaviy ustuvor yo‘nalishlarga moslashib, rivojlanishning yangi bosqichiga o‘tishi kerak. O‘rganish, til va kasbiy mahoratni oshirish qoidalarini yodlash va bilimlarni passiv o‘zlashtirish bilan cheklanadigan davr emas; balki yangi uslublarni tanlashga olib keladigan amaliy yo‘nalishga asoslangan ko‘nikmalar xosil qilishdan iboratdir.

XULOSA

Ushbu kompetensiyalarning ob‘yekti talabaning shaxsiyati, uning axloqiy fazilatlarini, o‘zini o‘zi bilishga intilishidir. Shu bilan birga, ushbu malakalarni shakllantirishda talabaning o‘zi, uning atrofdagilar bilan muloqot uslubi, ma‘naviy qadriyatlarini va ustuvor yo‘nalishlari muhim rol o‘ynaydi. O‘z-o‘zini shaxs sifatida kamol toptirish majburiyati har qanday kasbiy yo‘nalishda mavjud. Shunday qilib, asosiy talablar chet tilini, xususan ingliz tilini o‘qitishning markazida turadi. Aynan ular talabaning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish qobiliyati va tayyorgarligini shakllantiradi, shuning uchun ular ijtimoiy so‘rov sifatida belgilanadi.

Biz keltirgan misollar – trening va loyiha usuli bo‘lajak jurnalistlarni tayyorlash va ularda muayyan vakolatlarni shakllantirish bo‘yicha zamonaviy talablarga javob beradi. Albatta, shaxs faoliyatining sifat jihatidan qayta tuzilishiga olib keladigan o‘zgarishlarni faqat chet tilini o‘qitish yoki jurnalistik ma‘lumot olish bilan bog‘lab bo‘lmaydi. Shaxsning shakllanishi va uning rivojlanishi shaxsning butun hayoti davomida yuz beradigan doimiy jarayon bo‘lib, universitetda o‘qitishning innovatsion usullari bilan birgalikda kasbiy salohiyatni shakllantirishning yangi tizimi bu jarayon uchun zarur bo‘lgan zaminni yaratishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev, Sh.M. (2021, 26-iyun). *Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga bayram tabrigi*. <https://president.uz/oz/lists/view/4454>

2. Affandi, A., Sukyadi, D. (2016). Project-based learning and problem-based learning for EFL students. *Journal of Education Studies*, 3(1), 23-40.
3. Allen, V.F. (1993). *Vocabulary teaching techniques*. Oxford.
4. Alsamani, A., Daif-Allah, A. (2016). Introduction of project-based guidelines in Saudi Arabia in career-oriented foreign language teaching. *English Language Teaching*, 9(1), 51-64.
5. Barak, M., Dori, Y. (2005). Enhancing undergraduate students' chemistry understanding through project-based learning in an IT environment. *Science Education*, 89(1), 117-139.
6. Bolsunovskaya, L.M., Phillips, K., Korotchenko, T.V. (2015). A project-based approach to career-oriented foreign language teaching. *Earth and Environmental Science*, 24, 177.
7. Brassler, M., Dettmers, J. (2017). How to enhance interdisciplinary competence: Interdisciplinary problem-based learning versus interdisciplinary project-based learning. *Interdisciplinary journal of problem-based learning*, 11(2).
8. Brundiers, K., Vieck, A. (2013). Do we teach what we learn? Sustainability problem solving and international comparison of project-based training courses. *Sustainability*, 5(4), 1725-1746.
9. Dvorghets, O.S., Shaturnaya, Y.A. (2015). *Improving students' media literacy in English* (pp. 192-193).
10. Emelyanov, Yu. (1985). *Active socio-psychological education* (p.78). Leningrad.
11. Helle, L. (2007). 'Ain't nothin' like the real thing': Motivation and study processes on a work-based project course in information systems design. *Journal of Education Psychology*, 77(2), 397-411.
12. Kan-Kalik, V. (1987). *About pedagogical communication to the teacher* (p. 97). Moscow.
13. Mohamadi, Z. (2018). Comparative effect of project-based learning and electronic project-based learning on the development and sustained development of English idiom knowledge. *Journal of Computing in Higher Education*, 30(2), 363-385.
14. *Psychology of Vachkov*. (2007). (p.5). Moscow.
15. Rakitina, E. (1999). Informatsionnye polya v uchebnoy deyatel'nosti. *Informatika i obrazovaniye*, 1, 21.
16. Sokolova, E.Ya., Golovacheva, E.A., Chernaya, A.A. (2015). *Kompyuterniy spetsializirovanniy kurs po proforientatsionnomu kommunikativnomu obucheniyu: rezultati analiza* (s. 193). Rossiya: Tomsk.
17. Ter-Minasova, C. (2008). *Language and intercultural communication* (p. 228). Moscow.

REFERENCES

1. Mirziyoyev, Sh.M. (2021, June 26). *Holiday greetings to the staff of the press and media*. <https://president.uz/oz/lists/view/4454>
2. Affandi, A., Sukyadi, D. (2016). Project-based learning and problem-based learning for EFL students. *Journal of Education Studies*, 3(1), 23-40.
3. Allen, V.F. (1993). *Vocabulary teaching techniques*. Oxford.
4. Alsamani, A., Daif-Allah, A. (2016). Introduction of project-based guidelines in Saudi Arabia in career-oriented foreign language teaching. *English Language Teaching*, 9(1), 51-64.
5. Barak, M., Dori, Y. (2005). Enhancing undergraduate students' chemistry understanding through project-based learning in an IT environment. *Science Education*, 89(1), 117-139.
6. Bolsunovskaya, L.M., Phillips, K., Korotchenko, T.V. (2015). A project-based approach to career-oriented foreign language teaching. *Earth and Environmental Science*, 24, 177.
7. Brassler, M., Dettmers, J. (2017). How to enhance interdisciplinary competence: Interdisciplinary problem-based learning versus interdisciplinary project-based learning. *Interdisciplinary journal of problem-based learning*, 11(2).
8. Brundiers, K., Vieck, A. (2013). Do we teach what we learn? Sustainability problem solving and international comparison of project-based training courses. *Sustainability*, 5(4), 1725-

- 1746.
9. Dvorghets, O.S., Shaturnaya, Y.A. (2015). *Improving students' media literacy in English* (pp. 192-193).
 10. Emelyanov, Yu. (1985). *Active socio-psychological education* (p.78). Leningrad.
 11. Helle, L. (2007). 'Ain't nothin' like the real thing': Motivation and study processes on a work-based project course in information systems design. *Journal of Education Psychology*, 77(2), 397-411.
 12. Kan-Kalik, V. (1987). *About pedagogical communication to the teacher* (p. 97). Moscow.
 13. Mohamadi, Z. (2018). Comparative effect of project-based learning and electronic project-based learning on the development and sustained development of English idiom knowledge. *Journal of Computing in Higher Education*, 30(2), 363-385.
 14. *Psychology of Vachkov*. (2007). (p.5). Moscow.
 15. Rakitina, E. (1999). Information field in teaching activity. *Information and Education*, 1, 21.
 16. Sokolova, E.Ya., Golovacheva, E.A., Chernaya, A.A. (2015). *Computer specialized course on career guidance communicative training: analysis results* (p. 193). Russia: Tomsk.
 17. Ter-Minasova, C. (2008). *Language and intercultural communication* (p. 228). Moscow.